

## DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TRANSPORTATION ON THE BASIS OF CREATING A SYSTEM OF CONTRAILER TRANSPORTATION

Mukhamedova Ziyoda Gafurdjanovna

Boboev Diyor Shomurotovich

Tashkent State Transport University (Tashkent, Uzbekistan)

**Abstract:** *The article gives recommendations on the introduction and improvement of contrailer transportation by rail. A new project is being considered to develop a network of contrailer terminals and railways. Mention is made of the further development of international transport links through the rapid introduction of contrailer technologies. In addition, the article analyzes various approaches to the organization of contrailer transportation. The organization of regular routes for the carriage of goods by contrailer transport has been studied.*

**Key words:** *International transport, traffic volume, contrailer traffic, new project, analysis, regular route, technology, terminal contrailer, combined transport, transport cooperation, modern transportation system, economic losses, terminal technologies.*

## РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПЕРЕВОЗОК НА ОСНОВЕ СОЗДАНИЯ СИСТЕМЫ КОНТРЕЙЛЕРНЫХ ПЕРЕВОЗОК

Мухамедова Зиёда Гафурджановна,

Бобоев Диёр Шомуротович

Ташкентский государственный транспортный университет (Ташкент,  
Узбекистан)

**Аннотация:** В статье даны рекомендации по внедрению и совершенствованию контрейлерных перевозок железнодорожным транспортом. Рассматривается новый проект по развитию сети контрейлерных терминалов и железных дорог. Упоминается дальнейшее развитие международных транспортных связей за счет быстрого внедрения контрейлерных технологий. Кроме того, в статье анализируются различные подходы к организации контрейлерных перевозок. Изучена организация регулярных маршрутов перевозки грузов контрейлерным транспортом.

**Ключевые слова:** Международный транспорт, объем перевозок, контрейлерные перевозки, новый проект, анализ, регулярный маршрут, технология, сеть терминалов, комбинированные перевозки, транспортное сотрудничество, современная транспортная система, экономические потери, терминальные технологии.

## KONTREYLERLI TASHISHLAR TIZIMINI TASHKIL QILISH ORQALI XALQARO TRANSPORT ALOQALARINI RIVOJLANTIRISH

Muhamedova Ziyoda Gafurdjanovna

Boboyev Diyor Shomurotovich

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O'zbekiston)


**Annotasiya:** *Maqolada temir yo'l transportida kontreyler tashishlarni joriy qilish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Kontreyler terminallari va temir yo'llar tarmog'ini rivojlanirish uchun yangi loyihami ishlab chiqish ko'rib chiqilgan. Kontreyler texnologiyalarini jadal joriy etish orqali xalqaro transport aloqalarini yanada rivojlanirish keltirilgan. Bundan tashqari, maqolada kontreyler transportini tashkil etish uchun turli yondoshuvlar orqali tahlillar amalga oshirilgan. Kontreyler transporti bilan yuklarni tashishda muntazam harakatlanadigan marshrut jo'natmalarni tashkil qilish o'rGANIB chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** Xalqaro transport, tashish hajmi, kontreyler tashish, yangi loyiha, tahlil, muntazam marshrut, texnologiya, terminallar tarmog'i, kombinatsiyalashgan tashish, transport turlari hamkorligi, zamonaviy tashish tizimi, iqtisodiy yo'qotish, terminal texnologiyasi.

**Kirish.** Bugungi kunda mahalliy va xalqaro tashishlarda keraklicha iqtisodiy foyda olish uchun zamonaviy texnologiya yutuqlarini transport sohasida muntazam qo'llab borish muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillardagi tashish hajmining ortishi ayniqsa, umumiylashish hajmining katta qismi avtomobil va temir yo'l transportiga to'g'ri kelayotganligi sababli ushbu transport turlarini rivojlanirish lozim. Buning uchun esa avtomobil transportining mavjud kamchiliklarini temir yo'l transportining o'ziga xos imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda bartaraf etish transport sohasida eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Avtomobil va temir yo'l transportining o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi kontreyler transporti eng samarali innovatsion texnologiyalardan biri sanaladi. Bundan tashqari, kontreyler transportini mamlakatimizda joriy qilish va rivojlanirish orqali dunyo bozorlari bilan xalqaro transport aloqalarini yanada mustahkamlashga erishiladi [2].

Statistik ma'lumotlarga asoslanib, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 67418,3 mlrd. so'm miqdorni tashkil etgan bo'lib, xizmatlar hajmining o'sishi 2020-yilning shu davriga nisbatan 16,0 % ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylashish hajmida ushbu turdag'i xizmatlarning ulushi 23,8 % ni tashkil etdi. Shundan 55,4 % ulushi avtomobil transporti xizmatlari, 15 % ulushi quvur transporti xizmatlari, 12,1 % ulushi temir yo'l transporti xizmatlari, 8,8 % ulushi havo transporti xizmatlari va 8,7 % ulushi yordamchi transport faoliyatiga tegishli. Mamlakatimiz bo'ylab transport turlari bo'yicha yuk tashishlarning umumiylashish hajmi 10,2 % ni tashkil etdi.

hajmi 2021-yilda 1511,9 mln. tonnani tashkil etib, shundan 90,8 % ulushi avtomobil transportiga, 4,8 % ulushi temir yo'l transportiga, 4,39 % ulushi quvur transportiga, 0,54 % ulushi havo transportiga to'g'ri kelmoqda (1-rasm).



1-rasm. Transport turlarining tashish hajmi bo'yicha ulushi.

Yuk tashish ko'rsatkichlari bo'yicha umumiy hajmning 95 % dan ortiqroq qismini avtomobil va temir yo'l transporti tashkil etadi. Shu sababli yuk tashish tizimida kontreyler transportining rivojlantirilishi ustuvor yo'nalishlardan sanaladi. Yangi transport tizimini joriy qilishdan oldin chuqur tahlilni amalga oshirish va iqtisodiy ko'rsatkichlarni amaliy hamda nazariy jihatdan hisoblab chiqish lozim.

**Tahlil.** Yangi loyiha keng qo'llanishi hamda katta yo'qotishlarsiz rivojlanishi uchun keng qamrov bilan ishlaydigan yirik transport korxonalari va tashkilotlari bilan uzviy hamkorlikda ishlash lozim. Bundan tashqari, intermodal tashishlar bilan shug'ullanadigan logistik markazlar ham muhim hisoblanadi. Bunday marketingdan foydalanish kontreyler transportini jadallik bilan rivojlantirishga sezilarli yordam beradi. Loyihani qo'llashdan oldin eksport, import va tranzit yuk oqimlarining yo'nalishlar bo'yicha o'sish ko'rsatkichlarini tahlil qilib, kelajakda istiqbolli bo'lishi kutilayotgan temir yo'l tarmoqlarini tanlab olish foydali bo'ladi. 2021-yilning yanvar-noyabr oylari oralig'idagi tashilgan yuk tahlilini amalga oshiradigan bo'lsak, import yuklar asosiy ulushni tashkil qilganligi 2-rasmda ko'rsatilgan [3].



**2-rasm. Yuk tashish tahlili.**


Shuningdek, eksport va tranzit yuklar tashiladigan yo‘nalishlarda kontreyler transportini joriy qilish mamlakatimizning xalqaro transport aloqalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tranzit yuk oqimlari ko‘p miqdorni tashkil qiladigan magistral yo‘llarda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash iqtisodiy jihatdan manfaatli sanaladi. Tanlangan marshrut yo‘nalishlari bo‘yicha kontreyler va boshqa transport texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholash orqali texnologiyani tanlash va modelini tuzib chiqish lozim. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni taqqoslash natijalarida kontreyler transporti ko‘rsatkichlari yaxshiroq bo‘lgan yo‘nalishlarda kontreyler transportini joriy qilishga investitsiyalarini kiritish kerak. Transport texnologiyalarining imkoniyatlarini hamda texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini taqqoslashda tarif masofasi, logistika xizmatlar narxi, terminal xizmatining narxi, yuk tashish narxi, yuk mashinasi soni, yarim tirkamalar soni, yoqilg‘i-moylash materiallari, haydovchilarning ish haqi, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash kabi bir qator ko‘rsatkichlarni o‘rganish lozim [7].

Ushbu loyiha intermodal, multimodal va aralash kabi boshqa tashishlardan yuklarni yetkazib berish jarayoni bitta transport vositasi yordamida amalga oshirilishi, qayta yulash jarayonining qulayligi, tashish hujjatlari, tarif stavkalari va boshqalar bilan farqlanadi. Kontreyler transportini joriy qilishda qayta ishlanmay muntazam harakatlanadigan yo‘nalishlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Doimiy harakatlanadigan yo‘nalishlarni yuk oqimlarining o‘sishini inobatga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirish tavsiya qilinadi. Bundan tashqari, yangi texnologiyadan foydalanish uchun bekat rejasini o‘zgartirish va o‘tkazish qobiliyatini orttirish maqsadida foydalanish maydonini kengaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish imoniyatlarini ko‘rib chiqish lozim.

Yangi texnologiya yordamida yuk tashishni yagona transport orqali tashishni tashkil etish mumkin. O‘z navbatida, kontreyler tashishlarni tashkil etishda eng asosiy vazifalardan biri tashish uchun mo‘ljallangan vagonlar to‘plamini shakllantirish, yarim tirkamalar va ixtisoslashtirilgan platformali terminallar bilan ta’minalash lozim.

Tashishni tashkil etish esa bir nechta marshrut turlari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Bunda harakat tarkiblari faqat boshidagi bekatda ortilib so'ngi bekatda tushirilishi yoki jo'natish va belgilangan bekatlar oralig'idagi boshqa bekatlarda qayta ortish-tushirish ishlari bilan tashkil qilinishi mumkin. Loyihani joriy qilishdan oldin esa tashish uchun xizmatlarni shakllantirish, temir yo'l liniyalarining imkoniyatlarini inobatga olish, tashishni tashkil etish bo'yicha yangi qoidalarni va tashish uchun texnik shartlarni ishlab chiqish lozim. Yangi transportning ishlash texnologiyani rejalahtirishda hozirda mavjud yuk tashish bo'yicha yo'riqnomalarning talablariga to'liq rioya qilish shart. Bundan tashqari, xalqaro va mahalliy tashishlardagi transport aloqalarini mustahkamlash uchun mavjud magistral temir yo'llardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni ham ko'rib chiqish kerak [5,6].

Kontreyler tashishni joriy qilishdan oldin taklif qilinayotgan loyihani to'g'ri baholash uchun SWOT tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. 3-rasmda loyihani amalga oshirish uchun yetakchi mamlakatlar tajribasi asosida kontreyler transportining kuchli tomonlari, kamchiliklari, imkoniyatlari va tahdidlari keltirib o'tilgan.




3-rasm. Kontreyler transportining SWOT tahlili

Kontreyler transportining kuchli tomonlari va imkoniyatlaridan to'liq foydalanish orqali transport sohasida xalqaro transport yo'laklarini shakllantirish hamda mustahkam transport aloqalarini o'rnatish mumkin. O'z navbatida, yangi loyihaning

kamchiliklari va tahdiddarini bartaraf etish uchun barcha tomonlarning o'zaro hamkorligini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

**Asosiy qism.** Bundan tashqari, yangi loyihani amalga oshirishda texnik imkoniyatlar, texnologik imkoniyatlar, tashkil qilish imkoniyatlari va iqtisodiy imkoniyatlar ko'rib chiqilishi ham zarur (4-rasm).



4-rasm. Yangi loyihani joriy qilishdagi yondoshuvlar.

Yuklarni yetkazib berish jarayonida yuklarning transport turini o'zgartirishida yaxlit texnologik jarayon ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida tashishni tashkil etish, hujjatlarni me'yorlashtirish, xavfsizlikni ta'minlash, ortish-tushirish ishlarini tartibga solish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlar ham amalga oshirilishi lozim. Iqtisodiy jihatdan kapital qo'yilma xarajatlarini, kerakli investitsiyalarni, transport xizmatlar uchun tariflarni kabi vazifalarni belgilab olish kerak. Kontreyler transportini joriy qilish loyihasi katta iqtisodiy yo'qotishlar olib kelmasligi uchun loyihani har tomonlama tahlil qilib chiqish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, yangi texnologiyaning ishlashini kuzatish uchun eksperimental sinovlarni o'tkazish yanada ishonchlilikni oshiradi. Buning uchun bir nechta asosiy yo'naliishlarni tanlash va ushbu yo'naliishlarda kontreyler transportida tashish ishlarini olib borish kerak. Eksperimental tashishlar orqali bir qator texnologik va texnik parametrlarni tekshirib olish lozim:


- kontreyler harakatlanayotgan vaqtda temir yo'l va tuzilma ob'ektlarining gabarit o'lchamlarini tekshirish;
- bo'sh va yuklangan holatlarda tormozlash vositalarini sinash;

- kontreyler vagonlariga bir yo‘nalishli va qarama-qarshi harakat tarkiblarining hamda shamolning ta’sirini kuzatish;
- harakat davomida nishablik va egriliklarda mahkamlash vositalarini tekshiruvdan o‘tkazish;
- tezlik me’yorlarini ishlab chiqish uchun barcha sharoitlarda turli xil tezlikda harakatlantirish;
- terminallarda ortish va tushirish mexanizmlarini sinash va vaqt sarflarini belgilash;
- xalqaro tashishlarda chegara punktlaridagi vaqt sarflarini aniqlash;
- va shu kabi boshqa maqsadlarni amalga oshirish.

Sinov natijalari poyezdlar harakat xavfsizligini ta’minlashi va poyezdlar harakat jadvaliga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim. Sinov natijalari asosida kontreylerlarga xizmat ko‘rsatish me’yorlarini belgilash, treylerli platformalarni raqamlash, kerakli terminal jihozlari bilan ta’minlash hamda yangi texnologiyadan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatma va yo‘riqnomalar ishlab chiqiladi [1].

Kontreyler harakat tarkibini tuzish va hujjatlarni rasmiylashtirish hozirgi qo‘llanilib kelinayotgan ish jarayonidagidan katta farq qilmaydi. Shuningdek, yangi texnologiya uchun o‘zgarishlar xalqaro tajribadan kelib chiqib belgilanadi. Poyezdlarni tuzish va tarqatish joylari tomonlar orasidagi kelishuvga asosan, umumiylar yoki noumumiy joylarda amalga oshirilishi mumkin. Harakat tarkibini shakllantirishda og‘irlik va uzunlik me’yorlarini ham belgilab olish kerak. Kontreyler poyezdi vagonlariga texnik xizmat ko‘rsatish, qayta yuklash, tijoriy ko‘rikdan o‘tkazish va manevr ishlari vaqt sarflarini me’yorlashtirish talab qilinadi. Yuqoridagi vazifalardan tashqari, harakat xavfsizligi uchun transport vositasini maxsus platformaga mahkamlash ishlarini ishonchli bajarish va harakatlanish davomidagi siljishlarni inobatga olish muhim hisoblanadi [8].

Kontreyler transportining terminallari mavjud terminallardan ish texnologiyasi va tuzilishi bilan farqlanadi. Shu boisdan, innovatsion texnologiyaning terminallar tuzilishiga chuqur e’tibor qaratish lozim. Hozirgi davrda chet el mamlakatlarida kontreyler transporti uchun turli xil terminallar va unga mos keluvchi harakat tarkiblari qo‘llanilib kelmoqda. 5-rasmida kontreyler terminallarini o‘rganish orqali boshqa terminallarga nisbatan bir qator ustunliklarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.



#### 5-rasm. Kontreyler terminalining qulaylik va imkoniyatlari.


Kontreyler terminallarini aniq tahlil va hisoblar orqali tanlangan joylashuvlarda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda yangi terminallarni loyiha asosida mavjud terminallar o‘rnida qayta qurish ishlari bilan shakllantirish mumkin. Kontreyler terminallarini tashkil etishda kapital xarajatlarni kamaytirish uchun bir nechta loyiha variantlarini tuzish va optimalini tanlab olish tavsiya etiladi.


Kontreyler tashish texnologiyasida harakat xavfsizligini to‘liq ta’minlash uchun tirkama yoki yarim tirkamali yuk mashinalarining o‘lchamlarini va gabaritlarini tadqiq qilish lozim. 6-rasmda yuklarni yarim tirkamalararning poliga 800 mm-1200 mm li standart tagliklarni joylashtirish namunasi ko‘rsatilgan.



#### 6-rasm. Yevrofura yuk mashinalariga yuklarni joylashtirish sxemasi.

Yarim tirkamalarning yuk ko‘tarish qobiliyati va o‘lchamlari jihatidan bir nechta turlari mavjud. Yarim tirkamalar kengligi 2,4-2,45 m, uzunligi 10-13,6 m, balandligi 2,3-3 m va hajmi 55-120 m<sup>3</sup> oralig’ida bo‘ladi. Asosiy foydalilaniladigan yevrofura yarim tirkamalararning namunaviy sxemasini 7-rasmda ko‘rshimiz mumkin.





7-rasm. Yevrofura yuk mashinalari yarim tirkama qismining o'lchamlari

Yevrofura yuk mashinalarining ichki o'lchamlari va hajmi 1-jadvalda keltirilgan.

#### 1-jadval. Yevrofura yuk mashinalarining ichki o'lchamlari

Yevrofuralarning turlari va o'lchamlari	Ichki kengligi, m	Ichki uzunligi, m	Ichki balandligi, m	Ichki hajmi, m <sup>3</sup>
Yevrofura 82 kub. m (YEVRO)	2,45	13,6	2,45	82
Yevrofura 86 kub. m (YEVRO)	2,45	13,6	2,60	86
Yevrofura 90 kub. m (YEVRO)	2,45	13,6	2,70	90
Yevrofura 92 kub. m (YEVRO)	2,45	13,6	2,80	92
Yevrofura 96 kub. m (YEVRO)	2,45	13,6	2,90	96
Jumbofura 96 kub. m (JUMBO)	2,45	13,6	2,45 va 3,0	96
Megafura100 kub. m (MEGA)	2,45	13,6	3	100


Yevrofura yuk ko'tarish mashinalarining 1-jadvalda kuzov qismining ichki o'lchamlari ko'rsatilgan.

#### 2-jadval. Yuk ko'tarish mashinasi yarim tirkamasining gabarit o'lchamlari

G'ildirak bazasi	6390 mm
G'ildirak o'qlari orasidagi masofa	1310 mm
Umumiy uzunlik	13950 mm
Umumiy kenglik	2550 mm
Yuklash platformasi uzunligi	13620 mm



Yuklash platformasining kengligi	2480 mm
Gorizontall tashish holatida yuklash balandligi	1190 mm
Tom ostidagi balandlik	2710 mm
Gorizontall tashish holatida umumiy balandlik	3945 mm

Gabarit talablari uchun esa umumiy o'lchamlarini hisoblab olish shart. Yevrofuralarning umumiy uzunligi 20 metrni tashkil qiladi (8-rasm).



8-rasm. Yevrofura yuk mashinalarining yarim tirkamalar bilan birgalikda umumiy gabarit o'lchamlari

Yevrofura yuk mashinalarining gabarit talablari bilan bir qatorda, ular yuklanadigan platforma o'lchamlarini ham ko'rib chiqishimiz kerak.



### 9-rasm. Platformalarning o'lchamlari

Platformaning modeliga qarab texnik xarakteristikalarda farqli jihatlar mavjud.


3-jadval. Platformalarning texnik xarakteristikasi.

Platforma modellarining texnik xarakteristikasi	13- 4012	13-401	13-4085	13-9004	13- 4012-09	13- H451	13-926	13-935
Yuk ko'tarish quvvati, tonna	71	70	72	68	72	63	73	73
Kuzovning ichki uzunligi, mm	13300	13300	13300	18300	13300	13300	18300	18300
Kuzovning ichki kengligi, mm	2770	2770	2830	2870	2770	2770	2830	2830

Bort devorlari balandligi, mm	500- 400	500 400	500 400	-	-	500 305	500 400	575
Vagon bazasi, mm	9720	9720	9720	14720	9720	9720	14400	14400
Avtomatik biriktirgichlarni ularash o'qlari bo'ylab uzunlik, mm	14620	14620	14620	19620	14620	14620	19620	19620
Ramaning oxirgi balkalari bo'ylab uzunlik, mm	13400	13400	13400	18400	13400	13400	18400	18400
Maksimal kenglik, mm	3150	3140	3150	3204	2870	3140	3204	3204
Rels sathidan balandlik, mm:  - maksimal - polgacha - avtomatik biriktirgichning o'qigacha	1820  1310  1040- 1080	1810  1310  1040- 1080	1310  1040- 1080	1722  1322	1400  1040- 1080	1810  1310  1040- 1080	1806  1304  1040- 1080	1706  1304  1040- 1080

Kontreyler transporti gabarit talablariga to'liq mos kelishini ko'rishimiz uchun yevrofura yuk mashinalari gabarit o'lchamlari va platformaning texnik xarakteristikasi tahlil qilinib, temir yo'l transporti gabarit talablari bilan taqqoslab chiqish lozim [9].

Kontreyler transport tizimini tashkil etishda terminallar qatorida yuk tashish transport vositalari ham muhim sanaladi. Bunda transport vositalarining maksimal og'irligi, kengligi, uzunligi, balandligi, yarim tirkama yoki tirkamali yuk mashinasi kabi bir nechta parametrlarini inobatga olish lozim.



10-rasm. Temir yo'l transportida qo'llaniladigan gabarit chegaralari.

Amalda qo'llaniladigan gabarit chegaralariga rioya qilmaslik tashilayotgan yukga, harakat tarkibiga, temir yo'l inshoot va qurilmalariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Tadqiqotlar asosida kontreyler tashishda yevrofuralarni temir yo'l platformasiga ortganimizdagi yuqori yon gabarit ortib ketganligi sababli ikkinchi va uchinchi gabarit darajasida tashish taklif etiladi. Shuning uchun ham kontreyler transportini tashkil qilishda transport vositalarining o'lchamlari gabarit talablariga to'liq mos kelishi shart. Bundan tashqari, tashish davomidagi tebranishlar va o'g'ishlar inobatga olinishi kerak. Gabarit talablarida maxsus transport vositalarini platformaga o'rnatishning to'g'ri amalga oshirilishi ham asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Kontreyler terminallarida maxsus platformalarni va transport vositalarini yangi ishlab chiqishga ko'p vaqt va xarajat ketmasligi uchun hozirda ishlatilayotganlarini rekonstruksiya qilib foydalanishga harakat qilish lozim.

**Xulosa.** Maqolada mamlakatimiz temir yo'l transportida zamonaviy transport texnologiyalaridan biri sanaluvchi kontreyler transportini joriy qilishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan muhim jihatlar tahlil qilingan va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Kontreyler texnologiyasini qo'llash o'z navbatida, transport turlari hamkorligini ta'minlagan holda yuklarni yagona transport vositasida tashish imkoniyatini yaratib beradi. Temir yo'l transportining imkoniyatlari yanada kengayib, yuklarni bir transport vositasidan boshqa transportga qayta ortish vaqtி sezilarli darajada kamayadi. Yuklarni yetkazib berish bitta yuk birligida amalga oshirilishi sababli yuklarning shikastlanishi, yo'qolishi va yuk bilan bo'ladigan bir nechta amallar kamayadi. Kontreyler transportini mamlakatimiz hududida keng joriy qilish orqali mahalliy tashishlardagi mavjud ba'zi muammolar o'z yechimini topadi. Bundan tashqari kontreyler transportini qo'llash mamlakat uchun iqtisodiy ahamiyat kasb

etadi. Yangi texnologiya xalqaro transport aloqalarini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga keng imkoniyat yaratib beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Балалаев А.С., Леонтьев Р.Г. Транспортно-логистическое взаимодействие при мультимодальных перевозках: монография.—М.: ФГБОУ «Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте», 2012.—268 с.
2. Концепция организации контрейлерных перевозок на «пространстве 1520», Москва, 2011.
3. J.A.Shixnazarov, D.Sh.Boboyev. Temir yo'l transportida yuklarni yetkazib berish jarayonidagi vagonlardan samarali foydalanishni tahlil qilish, Academic research in educational sciences volume 2 | issue-5 | 2021
4. Z.G Mukhamedova. Analysis and assessment of power efficiency of special self - propelled railway rolling stock. // Bulletin of the Turin Polytechnic University in the city of Tashkent. - Tashkent, №3 / 2019. pp. 104-109.
5. Boboev D.Sh., Bozorov R.Sh., Shermatov E.S. Choose types of transport and improve their cooperation in the process of delivery of cargo/ Ekonomika i sotsium. №5 (84) 2021.
6. Muhamedova Z.G., Boboyev D.Sh. (TDTU). Zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalar orqali yuklarni yetkazib berishni tashkil qilish // Transportda resurs tejamkor texnologiyalar / – Toshkent: “TDTU”, 2021 –569 b.
7. Muhamedova Z.G., Boboyev D.Sh. Kontreyler tashishni qo'llash orqali ekologik xavfsiz transport tizimini tashkil etish // «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» / Innovative academy.uz. 8(08) –Toshkent, 2022.
8. Boboyev D.Sh. Kontreyler terminallari orqali yuk tashishning innovatsion texnologiyasini tashkil etish// «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» / Innovative academy.uz. –Toshkent, 2022.
9. Z.G.Mukhamedova, Z. V.Ergasheva Economic and mathematical model of container block-trains// Technical sciences, 2021, No.3.-P. 30-36.